

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi
Navoiy Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrası
5110900-Pedagogika - psixologiya bakalavriat yo`nalishi
Pedagogika fanlarini o`qitish metodikasi
fanidan yozgan

KURS ISHI

**Mavzu: Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini
shakllantirish fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi**

**Bajardi: N.Jo`raqulova “Pedagogika va psixologiya” yo`nalishi 3 –kurs
talabasi**

Ilmiy rahbar: M.M.Raupova

Navoiy -2016

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Pedagogika va psixologiya kafedrasining

2015 yil 8 sentyabr № 2-sonli yig`lish qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: Kafedra professori: X.I.Ibraimov, kafedra mudiri: p.f.n. F.O.Xodjiyeva, dots.G`.Normurodov, o`qituvchilar: F.Hamidova, D.Umurzoqov, N.Sharipova, D.Usmonova, M.Raupova, D.Numonova, G.Saidova

K U N T A R T I B I

2015-2016-o`quv yilida Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya ta`lim yo`nalishi talabasi

_____ ning
kurs ishi mavzusini tasdiqlash to`g`risida

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri p.f.n F.Xodjiyeva so`zga chiqib, kafedra a`zolarini kurs ishi mavzusi bilan tanishtirdi va mavzuning dolzarbligi bugungi kundagi ahamiyatini nazarda tutib:

_____ nomli kurs ishining mavzusi qilib tasdiqlansin.

Ilmiy rahbar etib _____ *belgilansin.*

Kafedra mudiri:

p.f.n F.Xodjiyeva

«TASDIQLAYMAN»

Kafedra mudiri _____

p.f.n. F.O. Xodjiva

« ____ » _____ 2015 -yil

KURS ISHI

“ _____ ” fani bo`yicha

Talaba _____

Ta`lim yo`nalishi _____ Kurs _____ Guruh _____

TOPSHIRIQ

1. Kurs ishi mavzusi _____

2. Boshlang`ich ma`lumotlar _____

3. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati _____

4. Yozma qismning tuzilishi _____

1. _____

2. _____

3. _____

4. _____

5. Qo`shimcha vazifa va ko`rsatmalar

6. Kurs (ishi) bajarishi _____

Kurs ishining himoya qilish _____

Kurs ishiga taqrizchi _____

Ilmiy rahbar _____

(F.I.O.)

(Imzo)

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Pedagogika va psixologiya kafedrasining

2016 yil 26-yanvardagi 7-sonli majlis qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: Kafedra professori: X.I.Ibragimov, dots.G` .Normurodov, p.f.n. M.Xalilova, o`qituvchilar: F.Hamidova, D.Umurzoqov, N.Sharipova, M.Raupova, D.Numonova, G.Saidova.

K U N T A R T I B I

___ -kurs talabalarining kurs ishi muhokamasi.

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri v.b.: D.Umurzoqov so`zga chiqib, kafedra a`zolarining _____ fani bo`yicha tayyorlagan kurs ishi haqida to`xtalib, ishning to`liq talab asosida tayyorlanganligini, kurs ishining xulosasi, zaruriy hujjatlari rasmiylashtirilganligini ta`kidlab o`tdi.

Shundan so`ng talaba: _____

O`z mavzusi bo`yicha uning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, olib borilgan uslubiy ishlarning natijalari haqida o`zining xulosa va tavsiyalarini bayon etdi.

Kurs ishining mavzusi yuzasidan berilgan savollarga to`liq javob qaytardi.

MAJLIS QAROR QILDI:

1. Talaba:

_____ ning

_____ mavzusidagi kurs ishi tugallangan ish deb hisoblansin.

2. Kurs ish himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri v.b.:

D.Umurzoqov

MUNDARIJA

KIRISH

Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirishning nazariy asoslari.

1. Prezidentimiz I.A. Karimov asarlarida yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish to'g'risidagi qarashlari.....

2. Yosh avlodni huquqiy madaniyati va ongini shakllantirishning tarixiy ildizlari.....

3. Yoshlarga huquqiy madaniyat va ongni shakllantirishda fuqarolik tarbiyasini berishning ahamiyati.....

III. XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

KIRISH

Fanning ishlab chiqarish bilan aloqalarining ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi kabi ilg'or shakli respublikada keng ommalashmayotganligi alohida tashvish uyg'otmoqda.

I.A.Karimov

Mavzuning dolzarbligi Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq kuchli demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan asosiy vazifa etib belgilab berildi. O'tgan yigirma yildan ziyod vaqt davomida yurtimizda huquqiy davlat qurish yo'lida muayyan natijalarga erishilganini e'tirof etgan holda, bu borada hali oldimizda juda ko'p ishlar turganini ham qayd etish joiz.

Davlatimiz rahbari bu yo'lda qo'yilgan dastlabki qadamlarga to'xtalar ekan, "Biz, eng avvalo, huquqiy asosni tayyorladik. Jamiyatimizning asosiy aqidalari, uning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy yo'nalishlari belgilab berilgan Konstitutsiyamiz ham ana shu asosga qurilgan. Biz qonunchilik bazasini barpo etib, butun davlat tuzilmasini o'zgartirdik"¹, deb qayd etadi.

Biz qachonki "demokratik davlat" degan iborani aytadigan bo'lsak, albatta, "huquqiy" degan so'zni ham qo'shib ishlatamiz. Bugungi kunda xalqimizning siyosiy ongi oshishi bilan "huquq" degan so'z va unga bog'liq bo'lgan "huquqiy davlat", "huquqiy ong", "huquqiy madaniyat", "inson huquqlari madaniyati" kabi istiqlol davri uchun yangilik bo'lgan muhim tushunchalar o'zida ifoda qiladigan maqsadni teran anglash, bu tushunchalarning mohiyatiga yanada chuqur yetib borish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, huquq – davlat irodasini ifodalaydigan va uni kuch bilan himoya qiladigan umumiy majburiy normalar majmui (tizimi). Huquq avvalo fe'l-atvor normalari yoki qoidalari majmuasi, aniqroq qilib aytganda tuzilmasidir. SHu

¹ Karimov I.A. Vatan saждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т.: "Ўзбекистон", 1996. – 135-бет.

ma'noda, huquq erkinlik me'yorini belgilab yoki chegaralab, majburiyat yuklab va aniqlab, kishilar faoliyatini ijobiy yo'naltirish uchun ularning fe'l-atvoriga faol ta'sir ko'rsatadi.

Kurs ishining maqsadi: Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirishda fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismlarini o'rganish.

Kurs ishining ob'yekti- Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirishda fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismlarini o'rganish jarayoni

Ishning predmeti- Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirishda fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismlarini o'rganish mazmuni, shakl va usullari

Tadqiqotning vazifalari:

- Mavzuga oid pedagogik va metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- Mavzuga oid pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish;

1. PREZIDENTIMIZ I.A. KARIMOV ASARLARIDA YOSH AVLODNING HUQUQIY MADANIYATI VA ONGINI SHAKLLANTIRISH TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

Mustaqillik, fuqarolik jamiyati va demokratiya tushunchalari o'rtasidagi uzviy aloqadorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, mustaqil mamlakatni demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati institutlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. SHu bois yurtimizda istiqbolning ilk kunlaridanoq demokratik yangilanish, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo'li tanlab olindi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, bu yo'lni har kim o'ziga xos yo'sinda bosib o'tadi. O'zbekiston demokratiyaning fundamental tamoyillariga asoslangan, ularga qat'iy rioya etgan holda, ayni paytda o'z harakatlarini xalqimizning tafakkuri, necha ming yillik turmush tarzi bilan muvofiq ravishda olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

SHunisi diqqatga sazovorki, oldimizga qo'yilgan asosiy maqsad va ustuvor vazifalar mamlakatimizni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish borasida uzoqni ko'zlaydigan “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyiliga asoslangan. Bu – demokratik islohotlarimiz izchil va tadrijiy, bosqichma-bosqich va uzluksiz tizimli jarayon ekanining yana bir isbotidir.

Huquqiy davlat – jamiyatning irodasini ifoda etuvchi va uni aks ettiruvchi, qonunning ustuvorligiga asoslangan umumiy tashkilotdir. Huquqiy davlat – huquqning hukmronligi va ustuvorligi, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi, sudning mustaqilligi ta'minlanadigan, huquqni muhofaza etuvchi organlari ishi samarali bo'lgan, haqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlat.

Huquqiy davlat davlatning rivojlanganlik darajasini belgilab beradi va uning quyidagi belgilari mavjud:

birinchisi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining huquqiy va har tomonlama kafolatlanishi;

ikkinchisi, huquq va qonunning ustuvorligi;

uchinchisi, qonunlarning to'g'ri amal qilishi;

to'rtinchisi, fuqarolarning davlat oldidagi mas'uliyati va aksincha, davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyati; hokimiyatlarning taqsimlanish prinsipining amaliyotga tatbiq qilinishi;

beshinchisi, jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, demokratiya, qonuniylik va konstitutsiyaviylik rejimlarining mavjudligi.

Prezidentimiz qayd etganidek, “Huquqiy davlatning asosiy belgisi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta'minlanishidir. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Ulug' bobokalonimiz

Amir Temur aytganlariday: “Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo’ladi”².

Huquqiy madaniyat deganda, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, xalqning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo’lishi tushuniladi.

Huquqiy madaniyat – bu huquqiy savodxonlikdir. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish huquqiy davlatning muhim belgisi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, huquqiy madaniyatsiz huquqiy davlat bo’lmaydi. Davlatimiz rahbari o’zining “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” kitobida: “Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo’lishi huquqiy davlatning o’ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. SHu bilan birga, huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro’yobga chiqadi”³, deb ta’kidlaydi.

SHuni ham ta’kidlash joizki, Idoralararo kengashning zimmasiga yuklatilgan vazifalar “Obod turmush yili”da amalga oshiriladigan ishlar bilan ham chambarchas bog’liq. Nega deganda, agarki insonning huquqiy madaniyati, ongi, saviyasi yuqori bo’lsa, bu sohadagi o’zgarishlardan xabardor bo’lsa, demak, yurt obod bo’ladi.

YUrt obodligi avvalo ko’ngildan boshlanadi. CHunki hayotni, turmushni obod qilish uchun avvalo inson ko’ngli obod bo’lishi darkor. Obod yurtda yashash ham insonning huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Insonning huquqiy madaniyatini oshirish esa yurt obodligining asosiy shartidir. Obod yurtda yashash ham inson huquqiga kiradi.

SHu o’rinda bevosita huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan milliy me’yoriy-huquqiy asosga to’xtaladigan bo’lsak, quyidagilarni sanab o’tish mumkin:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 iyunda qabul qilingan “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o’rganish ishinish yaxshilash haqida”gi farmoni;
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvarda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganishni tashkil etish to’g’risida”gi farmoyishi;
4. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”;

² Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. – 125-бет.

³ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т.: “Ўзбекистон”, – 322-бет.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 29 mayda qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 10 iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida fuqarolarning qonunchilikning buzilishi yuzasidan shikoyat va arizalarni ko'rib chiqish boshqarmasini tuzish to'g'risida"gi qarori.

SHunday qilib, aholining huquqiy madaniyatini ko'tarish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash bo'yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun mustaqillikning dastlabki davridanoq mustahkam huquqiy poydevor yaratildi. Keyingi vaqtda bu borada amalda bo'lgan qonun hujjatlarini takomillashtirish borasida muayyan ishlar olib borilayotganini ham aytib o'tish lozim.

Jumladan, 2012 yilda tegishli davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda jahon parlamentarizmida noyob voqelik bo'lgan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi"ning yangi tahrirdagi loyihasi tayyorlandi. Bu hujjatning qabul qilinishi mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni yangi, yanada yuqori bosqichlarga ko'tarishga xizmat qiladi.

Bu ishlar ko'p jihatdan yangicha huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan bog'liq ekani sir emas. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro'yobga chiqadi. SHuning uchun odamlarda Konstitutsiyaga, qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash katta ahamiyatga ega.

Eng muhimi, hayotimizning, jamiyatimizning asosiy prinsiplarini va davlatimizning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy tuzilishini, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, erkin demokratik kelajagimizni aniq belgilab bergan Konstitutsiyamiz huquqiy davlat poydevorini qurib berdi.

Ayni vaqtda huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ularning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanishini nazarda tutib, qonunlarimizni muvaffaqiyat bilan hayotga tatbiq etishga, normativ-huquqiy hujjatlar bajarilishining monitoringini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Albatta, fuqarolarimizning ma'naviyatini, huquqiy ongi va madaniyatini milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida o'stirish borasidagi faoliyatimizda Prezidentimizning 2001 yil 4 yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishini bajarish bo'yicha amaliy tajriba o'z samaralarini bermoqda.

Ushbu muhim hujjat, avvalambor, bizga oldimizda turgan buyuk maqsadlarimizga bosqichma-bosqich erishish, bu yo'lda duch keladigan barcha g'ov va to'siqlarni yengish jarayonida har bir o'zbekistonlik uchun eng ta'sirchan qurolga aylanadigan kuch – bu xalqimizning huquqiy ongini, tafakkurini tarbiyalash, huquqiy madaniyatini oshirish, qalbida erkinlik va mas'uliyat tuyg'ularini qaror toptirishdir, degan, barchamizga birdek daxldor bo'lgan muhim haqiqatni teran anglatdi.

E'tiborli jihati shundaki, mamlakatimiz rahbari faqat O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini mustahkamlab, Konstitutsiyaning qabul

qilinishi vazifasini hal qilibgina qolmay, balki Asosiy Qonunning kafili sifatida maydonga chiqar ekan, Konstitutsiya normalari va qoidalarini to'la hayotga tatbiq qilishni ham amalga oshirdi.

Konstitutsiya har bir inson, fuqaroning huquqiy xulq-atvorini belgilab beradi. Uni bilmay turib, huquqiy madaniyatga erishib bo'lmaydi. SHu ma'noda, Islom Karimovning Konstitutsiya huquqiy madaniyat asosi, milliy qonunchilik negizi ekanini, Konstitutsiyaga sadoqat Vatanga va o'z xalqiga sadoqatni keltirib chiqarishini inobatga olib, Asosiy Qonunni o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratgani ayniqsa diqqatga sazovor. CHunki, aslida ham, Konstitutsiya – huquqiy bilimlar binosining poydevoridir.

SHu taxlit O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy tarbiyaning uzluksiz tizimi yaratildi.

Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri – aholi huquqiy ongi o'sishi dinamikasini monitoring qilishni ta'minlashdir. Huquqiy ong esa huquqiy madaniyatga asoslanadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalari, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zaro uzviy bog'liq tushunchalardir.

Huquqiy ong deganda, kishilarning huquq haqida tushuncha va bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek, huquq borasidagi tasavvurlarning inson ongida aks etishi tushuniladi.

Huquqiy mafkura – har xil huquqiy hodisalar haqidagi nuqtai nazar, tushuncha, g'oya va qarashlarning ilmiy umumlashtirilgan tizimidan iborat.

Huquqiy madaniyat bo'lmasa, huquqiy ong ham bo'lmaydi. Huquqiy ong degani bu – qonunlarni faqat bilishgina emas, balki ularni izchil ijro etish hamdir. Prezidentimiz uqtirganidek, “Qonunlar so'zsiz bajarilgandagina biz huquqiy davlat qurishimiz mumkin”.

SHu ma'noda, “huquqiy ong” tushunchasi “huquqiy savodxonlik” tushunchasidan kengroqdir. Huquqiy ong qonunlarning ijrosini ham o'z ichiga oladi. Demokratik jamiyatda qonunlarning ijro etilishi bilan birga, qonunlarga hurmat ko'rsatilishini ham ta'minlash taqozo etiladi.

Mamlakatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, “oldimizda turgan barcha g'ov va to'siqlarni yengish jarayonida hammamiz uchun eng ta'sirchan qurolga aylanadigan kuch – bu xalqimizning huquqiy ongini, tafakkurini tarbiyalash, huquqiy madaniyatini oshirish, qalbida erkinlik va mas'uliyat tuyg'ularini qaror toptirishdir.

Biz qonun ustuvorligiga erishgandagina o'zimiz uchun maqsad qilib qo'ygan adolatli, erkin jamiyat, farovon hayot barpo etishimiz mumkin. Jamiyat hayotining mezoni bo'lgan Konstitutsiyani chuqur va har tomonlama o'rganishimiz, uning ma'nosiga yetib borib, amaliy hayotimizning doimiy qo'llanmasiga aylantirishimiz darkor”⁴.

Haqiqatan ham, istiqlol yillarida biz shaxs va oilaning huquq va manfaatlarini himoya qilish, aholining huquqiy madaniyati va ongini oshirish vazifasini o'zimiz uchun maqsad qilib qo'yish bilan birga, bu masalani tom

⁴ Каримов И.А. Ватан равнаки учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001. – 139-140-бетлар.

ma'nodagi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning muhim sharti sifatida belgilab oldik.

Huquqiy ong bo'lmasa, demokratiya bo'lmaydi. Huquqiy ongning o'sishi – bu huquqiy madaniyatning o'sishi, qonunlarni ijro etish va hurmat qilish darajasining oshishi, demakdir.

Huquqiy ong qonunlarni nafaqat bilishni, balki qonun talablariga itoat etishni ham anglatadi. Albatta, inson hamma qonunlarni bilishi mumkin emas, ammo u eng muhim qonunlarni bilishga majbur. Bu konstitutsiyaviy majburiyatdir.

Prezidentimiz kuyinib gapirganlaridek: “Odamlarimizda huquqiy ong, huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi jamiyatda adolat mezonlarining buzilishiga olib kelmoqda. Ochig'ini aytganda, har birimiz ham Konstitutsiya va qonunlarimiz bergan haq-huquqlarimizni yaxshi bilmaymiz va uni himoya qila olmaymiz... Bir so'z bilan aytganda, Konstitutsiyamiz biz uchun nazariy-huquqiy hujjat – burch va majburiyatlarimiz majmuasigina emas. Balki u hayotimizni farovon etish, uni chinakam qonuniy asosda qayta qurish, o'z haq-huquqimizni ta'minlash, jamiyatda qonun va adolat ustuvorligini o'rnatishning hayotbaxsh manbaidir. Bu olijanob maqsadlarga erishish uchun barchamiz, avvalo, Konstitutsiyamiz va qonunlarimizning tub mohiyatini anglab yetishimiz va ularni hayotga tatbiq etish yo'lida birgalikda qat'iyat bilan kurashmog'imiz lozim”⁵.

Bu haqda gap borar ekan, hech shubhasiz, aholini huquqiy axborotlar bilan ta'minlash, bunda ommaviy axborot vositalarining rolini yanada oshirish g'oyat dolzarb vazifa ekanini, ya'ni fuqarolarning axborot olish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, o'z navbatida, yurtdoshlarimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga ham xizmat qilishini alohida ta'kidlash joiz.

CHunki, hayotda har bir inson o'zining insonligini o'z haq-huquqlari va majburiyatlarini bilganda, anglab yetgandagina to'la his etadi. Aks holda, o'zining va o'zгалar huquqini tanib olmagan inson jamiyatning jonsiz bir “murvati” bo'lib qolaveradi. SHu ma'noda, komil insonni tarbiyalashning eng zarur shartlaridan biri ham aslida insonning huquqni, qonunlarni chuqur bilishiga alohida ahamiyat qaratishdan iboratdir.

YOshlarni huquqiy merosimiz xazinasidagi asarlar bilan tanishtirish, hech shubhasiz, yosh avlodni o'zligini tanishiga, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat-e'tibor ruhida kamol topishiga xizmat qiladi. SHu bois buyuk allomalarimizning “Hidoya”, “Sunani Termiziy”, “Siyosatnoma”, “Usulul fiqh” kabi huquqiy asarlarini nashr etish, ularning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida muntazam targ'ib etish dolzarb vazifalardandir.

Qisqa aytganda, ommaviy axborot vositalari aholining ayrim hollarda hali ham saqlanib kelayotgan eskicha psixologiyasini tamomila o'zgartirib, odamlarda yangi huquqiy ongni shakllantirishga xizmat qilishi zarur. Toki har bir yurtdoshimiz insonning huquq va erkinliklari ayni vaqtning o'zida burch, majburiyat va mas'uliyat ekanini chuqur his etadigan bo'lsin.

⁵ Каримов И.А. Биз келажегимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Т.: “Ўзбекистон”, 1999. – 251-бет.

Albatta, huquqiy ong huquqiy bilimlarsiz shakllanmaydi va rivojlanmaydi. Har bir kishiga shuni tushuntirish lozimki, demokratiya sari yo'l – bu faqat qonunlarning soni bilan emas, balki ularning kishi ongiga nechog'lik singishi bilan belgilanadi.

Huquqiy ong uch mezonda yotadi, bular – shaxs, jamiyat, davlat. Har qanday jamiyatning belgilari jamiyat va davlat, shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bilan aniqlanishi lozim. Davlat doirasida qonunlarni bajarish shart, jamiyatda esa axloqiy, ma'naviy qadriyatlarga amal qilish lozim. Inson jamiyatning a'zosi sifatida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni hisobga olishi shart. SHaxsning jamiyatdagi o'rni uning ma'naviy qadriyatlarga, axloqiy normalarga hurmati bilan o'lchanadi.

Huquqiy madaniyat va ma'naviy qadriyatlar, axloq-odob haqida gap borganda, avvalambor, ko'hna zaminimiz odamlari ko'nglida ustuvor bo'lgan adolat, haqiqat, iymon, olijanoblik, bag'rikenglik, mardlik, tantilik kabi ulug' xislatlar Konstitutsiyamizdan munosib o'rin olganini alohida e'tirof etish joiz. Zotan, Asosiy Qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiradi.

Binobarin, inson o'z huquqini anglab yetar ekan, unda huquq bilan birga, burch va mas'uliyat borligini ham unutmasligi lozim. Agarki jamiyatda hammamiz faqat huquqimizni talab qiladigan bo'lsak, Vatan himoyasi, yurt tinchligi, tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, mehnatga munosabat, atrofdagi voqealarga daxldorlik, vijdon amri degan tushunchalarning amaliy ifodasi qanday bo'ladi, degan mantiqiy savol tug'ilishi tabiiy.

YUqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirib aytganda, huquqiy madaniyat – bu qonunchilik bergan imkoniyatlardan, Konstitutsiyada muhrlangan va qonunlarimizda o'z ifodasini topgan, biz deyarli har kuni takrorlab gapiradigan masala, ya'ni, bizga berilgan shuncha huquqlardan imkon qadar ko'p foydalanish darajasi deganidir.

1.2 YOSH AVLODNI HUQUQIY MADANIYATI VA ONGINI SHAKLLANTIRISHNING TARIXIY ILDIZLARI

Ne-ne buyuk mutafakkir ajdodlarimiz yashab o'tgan shonli tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilmu ma'rifat va ma'naviyatga, yuksak huquqiy ong va madaniyatga intilish hech qachon to'xtamaganini, bu buyuk insoniy sifatlar xalqimiz dahosining o'lmas timsoli sifatida eng og'ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi ko'p ming yillik boy huquq va huquqiy madaniyat tarixiga ega. Payg'ambarimiz vafotlaridan keyin islom olamida yangi qonun va qoidalarni paydo bo'lish jarayonini to'xtadi. Ana shu davrdan boshlab barcha huquqiy muammolar Qur'oni Karimda va Payg'ambar alayhissalom sunnatlarida korsatilib berilgan vaqonun qoidalar hal etilib huquqiy tarbiya beriladigan boldi. Islom huquqshunosligi asosan Qur'oni Karim va sunnati nabaviya asosida shakllandi va sunnatning negizini tashkil etuvchi hadislarni jamlab kelajak avlodni huquqiy tarbiyalash ehtieji vujudga keldi. Dastlabki urinishlar natijasida Zayd ibn al-Xasanning «Majma' ul-fiqh», Malik ibn Anasning «al Muvatga» nomli va Ahmad ibn Hanbaning «al-Musnad» nomli hadislar toplamlari vujudga keldi. Lekin ushbu hadislarning mualliflari mavjud hadislarni saralab toplashni ozlariga vazifa qilib qoymasdan, muayan huquqiy tarbiyaga javob beradigan zarur hadislarni toplash bilan chegaralangan. keyinchalik bu hadis ilmi bilan shug'ullanadigan olimlar tomonidan davom ettirildi. Ulardan butun islom olamida e'tirof etiladigan «Olti ishonchli toplam» (kutub assahih assitta) deb yuritiladigan toplamlar alohida orin tutadi. Bular Imom al-Buxoriy va imom Muslimlarning «Jome' as-sahih» (ishonchli toplam) an Nasoiy, Abu Dovud, atTermiziy va ibn Mohjalarning «As sunnan» nomli hadislar toplamlaridir. Buyuk islom olimi, faqih burhoniddin al-Marg'inoniy Qur'on va Hadisni mukammal egallab, fiqh-islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur bilimga ega bolgan va huquqiy tarbiya sohasida beqies durdonalar yaratgan. U ta'limni dastlab Marg'ilonda, keyinchalik Samarqandga kochib borib, butun islom olamida mashhur «Al hidoya» asarini 573 yili (1170) ezgan. Bu asar ovrupe xalqlari tillariga tarjima qilinib, katta qiziqish bilan organilganligidan uning kopgina mamlakatlarda hun'un` ilmi rivojiga sezilarli ta'sir korsatganligiga shubha yoq. Jumlada «Al hidoya»ning ingliz tilidan Vishnegorskiy tarjima qilib, N.M.Grodakov tahriri ostida 1893 yili Toshkentda rus tilida nashr etilishi fikrimizning dalilidir. «Al hidoya» bir necha asrlar davomida kop musulmon mamlakatlarida, jumladan, markaziy Osiyoda huquqiy tarbiyaga doir eng yirik asosiy manbalardan bolib keldi. 1917 yilgi tontarishdan keyin ham, to 1930 yillargacha shariat qonun-qoidalari bekor qilinib, shoro huquq tizimi joriy qilingunga qadar u amalda boldi. 100 Chor Rossiyasi tomonidan Markaziy Osiyoni zabt etishdan to Oktyabr tontarishgacha mustamlakachilik zulmini otkazishda yaxshi ish bergan hujjatlar 1865 yilgi «Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat Nizom», 1867 yilgi «Ettisuv va Sirdare viloyatlaridagi boshqaruv haqidagi Nizom», 1886 yilgi G` Turkiston olkasini boshqarish haqidagi Nizom», Chor Rossiyasi bilan Buxoro amirligi va Hiva xonligi ortasidagi tuzilgan

shartnomalar, Turkiston generalgubernatori tomonidan tasdiqlanib, xonlik va amirlik hududidagi rus fuqarolarining huquqlarini, mulklarini, shaxsini ximoya qilish haqidagi huquqiy tarbiyaga oid hujjatlarni organish oquvchilarda katta qizig'ish uyg'otadi.

3.YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYAT VA ONGNI SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK TARBIYASINI BERISHNING AHAMIYATI

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqloq g'oyalari fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, huquqiy madaniyatini qaror toptirish – fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi sanaladi.

Jamiyat tomonidan qonunchilik yo'li bilan belgilangan talablar fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlari mohiyatini tahlil qilish uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko'rinishlar, harakatlar yoki odatlar ma'qullanadi yoki qoralanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining maqsadi erkin, demokratik, insonparvar huquqiy davlat va jamiyatni qurishdir. Bu jamiyatni bunyod etish jarayonida yangi ijtimoiy fuqarolik tarbiyasini tashkil etish vazifalarini yanada murakkablashtiradi. Zero, demokratik, huquqiy jamiyat barpo etilishining muvaffaqiyati fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy onglilik darajasi, fuqarolik fazilatlarining qaror topganligi va ijtimoiy faollik ko'rsatkichlariga bog'liq.

Fuqarolikning ijtimoiy asosi yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bo'lib, unda fuqarolarning shaxsiy manfaati jamiyat manfaati bilan qo'shib, uyg'unlashib ketadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmunida aks etgan g'oyalar, demokratik talablar hamda axloqiy-huquqiy me'yorlarga muvofiq faoliyat yuritish ijtimoiy fuqarolik munosabatlarining muhim qoidasiga aylanadi.

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy ob'ekti fuqaro sanaladi.

Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxsdir.

Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1. YOsh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish.

2. O'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish.

3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

4. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish.

O'quvchilarning fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsga davlat Konstitutsiyasida ko'rsatilgan huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarish xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarni bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Respublika Bosh qonunida shaxsning quyidagi huquqlari kafolatlanadi: yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, ayblanayotgan shaxs ishining sudga qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilishi, har kim o'z sha'ni va obro'siga tahdid qiladigan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalaniish va turar-joy dahlsizligi, Respublika hududida bir joydan ikki joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish, fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillri orqali ishtirok etish, qonuniy mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish, kasaba uyushmalarida, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, saylash va saylanish, mulkdor bo'lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, qariganda yoki mehnat qilish layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy ta'minotdan foydalanish, tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi.

O'quvchilarga huquqlari borasidagi bilimlarni berish bilan birga fuqarolarning burchlari nimalardan iborat ekanligi haqida ma'lumot berish, bu xususida o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish ko'zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat omili bo'ladi.

Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda ko'zda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy-madaniy merosini avaylab asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash; O'zbekiston Respublikasini himoya qilish. YUqorida qayd etilgan burchlarni bajarish O'zbekiston Respublikasining fuqarosi sanaluvchi har bir kishining muqaddas burchidir.

Ijtimoiy hayotda fuqarolik madaniyatning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish: jamiyat va shaxs (fuqaro) manfaatlariga to'la mos keladi. SHu sababli Respublika mustaqilligi sharoitida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish mazmunini tubdan yangilash zaruriyati yuzaga keldi. Fuqarolik tarbiyasini keng ko'lamli (kompleks) tarzda tashkil etish – bugungi kun da'vati va talabi bo'lib qolmoqda. Ushbu talabni ijobiy ravishda hal etish oila - ta'lim muassasalari - jamoatchilik - davlat - jamiyat o'rtasidagi mustahkam hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs. O'z fuqarolariga ega bo'lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo'lmay, muayyan mexanizmga ega sub'ekt sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy o'rni qonun yo'li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishidan qat'iy nazar, ma'lum bir davlatga qarashliligi holati fuqarolik deyiladi. O'zbekiston fuqarosi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan tegishli qoidalar, belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunlarda ko'rsatilib o'tilgan burchlarni bajaradi.

Fuqarolik huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublikdir. Demak, «fuqarolik o'z davlatiga nisbatan huquq va burchlar bilan bog'langan, huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklikni nazarda tutadi»¹.

Fuqarolikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir:

- muayyan davlat jamiyat a'zosi ekanligini his etish, shaxs taqdiri davlat va jamiyat hayoti bilan uzviy, chambarchas bog'liq ekanligini tushunib yetish;
- xalq, davlat oldidagi fuqarolik huquq va burchlarini qonunchilik asosida bilish, ularga so'zsiz, qat'iy amal qilish;
- o'z xalqi, davlati o'tmishiga hurmat tuyg'usini qaror toptirish, shaxsiy manfattlaridan Respublika (Vatan) manfaatlarini ustun qo'ya bilish, xalq va Vatan ravnaqi, istiqboli uchun kurashishga tayyorlik, yurt tinchligini himoya qilish, asrab-avaylash;

¹ Синфдан ва мактабдан ташқари тарбиявий ишлар Концепцияси. – Маърифат газетаси, 1993 йил, 3 март.

- davlat ramzlariga nisbatan cheksiz muhabbatni qaror toptirish, ularning muhofazasi uchun tayyorlik, davlat ramzlarining millat, xalq or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatini ekanligini anglash;

- ijtimoiy-siyosiy onglik, ijtimoiy faollik, davlatning ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilish;

- milliy va umuminsoniy axloq hamda huquq me'yorlarini buzilishiga nisbatan murosasiz kurashish.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida shaxsda vatanparvarlik (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Binobarin, fuqaro muayyan davlatning a'zosi sifatida uning sha'ni, obro'-e'tiborini ta'minlashi, uning manfaatlari uchun kurasha olishi zarur.

«Vatan atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini bildiradi, Vatan tushunchasi ken va tor ma'noda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jumuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma'nodagi tushunchadir»¹.

Vatanparvarlik shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat sanaladi.

«Vatanparvarlik – o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan boqlagan barcha kishilrga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro'-e'tibori ham shu millat kishilar vatanparvarlik tuysusining darajasi bilan bog'liqdir»².

Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi:

1. Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat.
2. O'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlariga sodiqlik.
3. Vatan va millat tarixidan g'ururlanish.
4. YUrtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxurlik qilish.
5. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish.
6. Vatan ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish.
7. Vatan va millat obro'i, sha'ni, or-nomusini himoya qilish.
8. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo'lishi.

Vatanparvar shaxs o'z vatanini uning boyliklari yoki vatanining qulay geografik hududda joylashganligi uchun emas, balki, o'zi uning bir bo'lafi, o'zi mansub bo'lgan millatning esa unda istiqomat qilishi uchun qadrlay olishi zarur.

¹ Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Тошкент, Ўзбекистон, 1996. – 139-бет.

² Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Тошкент, Университет, 1998. – 148-бет.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida vatanparvarlik, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga keng o'rin berilgan. Xususan: «O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi bu qayta o'zgarish yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz, ishonchli kompasdir. O'zbekistonga, uning yeriga, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'alarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p milltli o'zbek jamiyatining muhim jiplashtiruvchi asosi hisoblanadi»¹.

Erkka intilish, ozod yashashga bo'lgan ehtiyoj insonga xos bo'lgan tuyg'udir. Inson o'z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. SHu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu g'oyalarni ifoda etuvchi ta'limotlarning bosh mavzusi bo'lib kelgan. CHunonchi, Hadisi SHarifda vatanni sevish iymondan ekanligi ta'kidlanadi.

Alisher Navoiy quyidagi misralarda vatandan ayrilish inson uchun og'ir judolik ekanligiga urug' beradi:

g'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish,
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulga tikondek oshiyon bo'lmas emish.

Allomaning fikrlarini rivojlantirgan holda vatandan judo bo'lish og'ir judolikkina emas, balki «yuzi qaroliq» ekanligini Zahiriddin Muhammad Bobur quyidagicha ifodalagan edi:

Tole yo'qi jonimga balolig' bo'ldi,
Har ishniki, ayladim - xatoliq bo'ldi.
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,
YO rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Abdulla Avloniy o'z asarlarida «vatan» tushunchasiga ta'rif berib, uning ravnaqi uchun kurashish vatanparvar insonga xos xususiyat ekanligi quyidagicha qayd etadi: «Har bir kishining tug'ulub o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sg'on yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi – tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohatda yashamas. ...

Biz turkustonliklar vz vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi. Arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, eskumular shamol taraflarini, eng sovuq va muzlik yerlarini boshqa yerdlardan ziyod suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilur edi»¹.

Inson o'zi tug'ilib o'sgan vatanda orzu-umidlari, niyatlari, hayotiy intilishlari bilan o'ziga yaqin bo'lgan kishilar davrasida bo'ladi, o'zi ko'nikkan turmush tarzi bo'yicha kun kechiradi, bolalikdan o'zi ko'nikkan ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etadi, hayotining bir qismiga aylangan tilda

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Тошкент, Ўзбекистон, 1992. – 76-бет.

¹ Авлоний, Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент, Ўқитувчи, 1992, - 230-бет.

so'zlashadi va u shu muhitdagina o'zini erkin his qiladi. Begona yurtlarda u o'ziga tanish bo'lgan, o'zi ko'nikkan muhitni topa olmaydi. SHu bois garchi iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatga safar uyushtirgan bo'lsa-da, o'z yurtini tezda sog'inadi.

Baynalminallik («inter» – orasida, o'rtasida, aro, «natio» – xalq) o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlardan biridir.

O'quvchilar o'rtasida vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasi ularga oid mavzularda suhbat, davra suhbat, matbuot konferansiyasi, viktorina, uchrashuv, ko'rik-tanlov, bahs-munozaralar tashkil etish kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. SHuningdek, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, vatanparvarlik va baynalminallik mavzularida yaratilgan asarlar mazmunini birgalikda o'rganish, kinofilmlar tomosha qilish ham o'zining ijobiy natijasini beradi.

O'quvchilarda baynamlinallik tuyg'usini shakllantirishda ta'lim muassasalari qoshida faoliyat yurituvchi «Do'stlik klubi»ning ta'siri kattadir. Binobarin, turli millatlarga mansub bolalar o'rtasida do'stlik aloqalarining bog'lanishi ularda bir-birlariga nisbatan hurmatni qaror toptiribgina qolmay, o'zga millat yoki elatlarning urf-odatlari, an'analari, tili, madaniyati va qadriyatlarini puxta o'rganishga ko'maklashadi. Bu boradagi bilimlar esa ularda shovinistik (millatchilik) kayfiyatining shakllanishiga to'sqinlik qiladi. SHuningdek, o'quvchilarni Respublika Baynalminal markazi yoki joylardagi Milliy-madaniy Markazlarning faoliyati bilan yaqindan tanishtirish, ayni vaqtda respublika hududida turli millat va elat vakillarini birlashtiruvchi 138 ta Milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritayotgani to'g'risida ma'lumotlar berib, ular tomonidan uyushtirilayotgan tadbirlarga o'quvchilarni faol jalb etish ham ijobiy natijalarni beradi.

Huquqiy tarbiya o'quvchilar o'rtasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi. 1993 yil mart oyida e'lon qilingan "Sinfдан va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi"da qayd etilganidek: "Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga so'zsiz rioya etish, adliyaviy bilimlarni egallashga ehtiyoj sezish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro tashkilotlar (BMT, Xavfsizlik Kengashi va hokazo) faoliyati haqida o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir¹.

- 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy

¹ Синфдан ва мактабдан ташқари тарбиявий ишлар Концепцияси. – Маърифат г., 1993, 3 март.

dasturi" g'oyalari jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish va uni rivojlantirish borasida qimmatli nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

- Huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Zero, huquqiy ta'lim o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

- Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. SHaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayoning muhim bosqichidir.

- Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:
 - o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;
 - o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;
 - o'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish;
 - ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;
 - o'quvchilar huquqiy madaniyati (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi. SHaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- keng ko'lamli ijtimoiy – huquqiy axborotli muhitning mavjudligi;
- shaxs huquqiy ongini shakllantirish;
- shaxs huquqiy faoliyatini yo'lga qo'yish.
- Pedagogik jarayonda huquqiy ta'lim-tarbiyaning samaradorligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning huquqiy jihatdan tarbiyalanganligi quyidagi holatlar bilan o'lchanadi:
 - o'quvchilar tomonidan "O'zbekiston davlat va huquqi asoslari", "Konstitutsiyaviy huquq" kabi o'quv fanlarining o'zlashtirilish darajasi, ya'ni, huquqiy bilimlarning muayyan darajasi;

- ularning umumjamiyat axloqiy-huquqiy me'yorlariga amal qilishlari hamda maktab va boshqa o'quv yurtlari ichki tartib-qoidalariga, shuningdek, o'quvchilar qoidalariga rioya qilishlari, tartib-intizomni buzish hollarining kamayganligi, o'z-o'zini nazorat qilish, xatti-harakatlari mohiyatini ongli tahlil etish qobiliyatiga ega ekanliklari – huquqiy ongning muayyan darajasi;
- ijtimoiy-huquqiy faolliklari (o'quvchilar o'z-o'zini boshqaruv organlari, yoshlar uyushmalari, tabiatni muhofaza qilish, shuningdek, jamoat tashkilotlari hamda huquq-tartibotni himoya qiluvchi tashkilotlar faoliyatini uyushtirishdagi ishtiroklari) – amaliy-huquqiy faoliyat ko'lami.
- O'quvchilardagi qiziqishni inobatga olgan holda huquqiy mazmundagi, xususan, "Biznes faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari", "Maishiy xizmat turlaridan foydalanishning huquqiy mohiyati", "Oldi-sotdi munosabatlarining huquqiy-axloqiy negizlari", "YOshlar jinoyatchiligi va uning oqibatlari", "XXI asrga narkotiklarsiz qadam tashla!", "Sening huquq va burchlaring", "YOshlar ijtimoiy mehnatini tashkil etish shartlari", "Nikoh-muqaddas bitim", "Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari", "Terrorizm – mudhish jinoyat", "Qonuniy harakat va harakatsizlik nima?" kabi mavzularda ma'ruza va seminarlar tashkil etish, mustaqil ravishda huquqiy bilimlarni o'zlashtirish maqsadida ularni huquqiy adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish, jinoiy xatti-harakatlar va ularning oqibatlari xususida davra suhbatlari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan uchrashuv va konferensiyalar o'tkazish, shuningdek, huquqiy mavzudagi kinofilmlar namoyish etish g'oyat muhim.
- SHaxsda huquqiy sifatlarni qaror topishi uning ijtimoiy – huquqiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki darajasi va sifatiga bog'liq. Doimiy ravishda, maqsadli tarzda huquqiy munosabatlarga kirishish shaxsda huquqiy madaniyat unsurlarining shakllanishiga olib keladi. SHu bois jamiyat mafkurasi, ijtimoiy tuzumda qaror topgan huquqiy munosabatlar mazmuni, uning g'oyalari o'quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishda yetakchi o'rin tutadi.
- Huquqiy tarbiyani tashkil etish davrida o'quvchilar faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondoshuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z faoliyatlarini real baholashga o'rgatib borish talab etiladi.
 - O'quvchilar "O'zbekiston davlat va huquqi asoslari", "Konstitutsiyaviy huquq" o'quv predmetlari asoslarini o'rganish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari tizimi, vakillik hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Respublika Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va davlat qo'mitalari, mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi kabi organlar faoliyatini o'rganish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosati mohiyatini o'zlashtirish, xalqaro huquqiy munosabatlarni yo'lga qo'yilishi tartibi bilan tanishib borar ekanlar, ayni vaqtda ularda nafaqat huquqiy ong balki siyosiy ong ham shakllanadi. Zero, jamiyat tizimi, uning amal qilishi uchun asos bo'lgan g'oya va qarashlar o'z navbatida huquqiy g'oya va qarashlarning vujudga kelishini ta'minlaydi.

- R.Mahmudov huquqiy madaniyatning asosini tashkil etuvchi qismlar moddiy, ma'naviy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqa mafkuraviy omillardan iborat ekanligini, demakki, moddiy hamda ma'naviy xususiyatga ega bo'lgan asosiy, bir-biriga muvofiq qismlarni ajratib ko'rsatadi¹. Huquqshunos olimlar SH.O'razayev, M.Qoriyevlar esa huquqiy madaniyat huquqiy bilimlarni egallash, huquqiy me'yorlarning amaliyotda o'z isbotini topishi hamda boshqa mualliflardan farqli ravishda huquqning obro'si va qonunning ijtimoiy hayotdagi o'rni bilan belgilanishini qayd etib o'tadilar: "Huquqiy madaniyat tushunchasi–huquqning rivojlanish darajasi, aholining huquq haqidagi tushunchasi, qonunchilikning ahvoli, huquqning obro'si va shu singari unsurlardan tashkil topadi"¹.

A.F.Nikitin esa shaxs huquqiy madaniyati tarkibini tushunishga o'ziga xos tarzda yondashadi hamda shaxs huquqiy madaniyatini murakkab psixologik hodisa deb baholaydi. U. chunonchi, uning tarkibiy qismlarini: huquqiy bilimlar va ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasi; qonunga nisbatan shaxs munosabati va nihoyat shaxsning huquqiy mazmunga ega bo'lgan vaziyatlardagi faoliyatidan iborat"deb ta'kidlaydi².

Demak, shaxs huquqiy madaniyati negizida quyidagilar aks etadi:

1) huquq va huquqiy tizim borasida yetarli ma'lumotga ega bo'lish, huquqiy bilim asoslarini o'rganish, ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishning hosil bo'lishi, egallangan nazariy-huquqiy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish borasidagi ko'nikmani shakllantirish hamda malakaga ega bo'lish;

2) ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarni uyushtirish chog'ida o'z faoliyati timsolida huquqiy madaniyat unsurlarini namoyon etish, ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy faollikni yuzaga keltira olishda ko'rinadi.

SHaxs huquqiy madaniyatini quyidagi ikki asosiy qismga ajratish mumkin;

1) huquqiy ong;

2) huquqiy faoliyat.

Huquqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyotning ma'lum bosqichida – davlat, mulk va mulkiy munosabatlarning paydo bo'lishi, aholining keskin sur'atda tabaqalashuvi, huquq, huquqiy munosabatlar tushunchalarining paydo bo'lish jarayonida ularga yondosh tushuncha sifatida qo'llanilgan hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tashkil etish chog'ida ko'zga tashlanadi.

Huquqiy ong muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy faoliyat huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy

¹ Махмудов Р. Ҳуқуқ ва маданият ғЗ.С.Зарипов таҳрири остида. – Тошкент, Ўзбекистон, 1993. –56-бет.

¹ Таджиханов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. 2-томлик. –Тошкент, Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998.-182-бет.

² НИКИТИН А. Ответственность несовершеннолетних. – Москва, Просвещение, 1990. – 109-бет.

munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

SHaxs huquqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy savodxonlik, huquqiy tafakkur, huquqiy faollik, huquqiy mas'ullik, huquqiy e'tiqod, huquqiy salohiyat.

XULOSA

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Huquqiy tarbiya o'quvchilar o'rtasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi.

Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi mavzusi asosida Respublikamiz Prezidenti A.Karimovning asarlarida huquqiy madaniyat va huquqiy ong tushunchalariga berilgan ta'riflar hamda bu borada davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlar yoritib berildi.

Bundan tashqari yoshlarda huquqiy madaniyat va ongni shakllantirishning tarixiy asoslari ajdodlarimiz merosida tutgan o'rni o'rganilib, misollar bilan bayon etildi.

Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish fuqarolik tarbiyasini berishning ahamiyati bo'yicha, fuqarolik tarbiyasi va uning asoslari hamda huquqiy ta'lim o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayonini, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozimli haqida fikrlar bayon etilgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – T.: “O‘zbekiston”, 2001. – 139-140-betlar.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: “O‘zbekiston”, 1999. – 251-bet.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod. siyosat, mafkura. T. 1. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – 125-bet.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – T.: “O‘zbekiston”, – 322-bet.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – 135- bet.

6. Mahmudov R. Huquq va madaniyat g‘Z.S.Zaripov tahriri ostida. – Toshkent, O‘zbekiston, 1993. –56-bet.
7. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2-tomlik. – Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998.-182-bet.
8. Nikitin A. Otvetstvennost nesovershennoletnix. – Moskva, Prosveheniye, 1990. – 109-bet.

